

OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARIDA PSIXOLOGIK MUHITNING O'RNI

Qulmatova Farog'at Abdumalikovna

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

23-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ota-ona va farzand munosabatlarida psixologik muhitning ahamiyati, uning bola shaxsining shakllanishiga ta'siri hamda sog'lom oilaviy muhitni yaratishning psixologik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlardagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, psixologik muhit, ota-ona, farzand, tarbiya, emotsional rivojlanish, ishonch, muloqot, shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv.

KIRISH

Oila inson shaxsining shakllanishida eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Bola dunyoqarashi, xarakteri va xulq-atvori aynan oilaviy muhitda shakllanadi. Shu sababli ota-ona va farzand munosabatlaridagi psixologik muhitning sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi bolaning butun hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik muhit deganda oiladagi hissiy munosabatlar, o'zaro hurmat, ishonch, qo'llab-quvvatlash va muloqot sifati tushuniladi. Ijobiy psixologik muhit mavjud oilalarda bolalar o'zini xavfsiz his qiladi, erkin fikrlaydi va o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladi. Aksincha, nizoli, sovuq yoki befarq munosabatlar bolada xavotir, qo'rquv va ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Ota-onaning tarbiya uslubi ham psixologik muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari qattiqqo'llik yoki aksincha, beparvolik bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Eng maqbul yondashuv esa demokratik tarbiya uslubi bo'lib, unda bolaga hurmat bilan yondashish, lekin aniq talab va qoidalarni belgilash muhim hisoblanadi. Oilada sog'lom muloqotning yo'qligi ko'pincha tushunmovchiliklar va nizolarga olib keladi. Bola o'z fikrini erkin ifoda eta olmagan muhitda uning emotsional rivojlanishi cheklanadi. Shu sababli ota-onalar farzandlari bilan ochiq va samimiy muloqot qilishlari zarur.

John Bowlbyning bog‘lanish (attachment) nazariyasiga ko‘ra, bola va ota-ona o‘rtasidagi erta emotsional bog‘lanish uning kelajakdagi ishonch hissi va ijtimoiy munosabatlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mustahkam bog‘lanish bolada barqaror psixologik rivojlanishni ta‘minlaydi. Oilaviy psixologik muhitni yaxshilashda ota-onalarning shaxsiy namunasi ham muhimdir. Bola ko‘pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. Shu sababli ota-onaning o‘zaro hurmatli munosabati va ijobiy xulqi bola tarbiyasida asosiy rol o‘ynaydi. Ota-ona va o‘smir farzand munosabatlari muammolari psixolog olimlarning ko‘plab tadqiqotlari predmeti bo‘lgan. Uzoq va yaqin xorij davlatlarida o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlarda ota-ona va farzand munosabatlaridagi buzilish o‘smirlar agressivligining rivojlanishiga sababchi omil sifatida o‘rganilgan. Jumladan, N.S.Kurmanova ota-ona va farzand munosabatlari psixologik korreksiyasi orqali o‘smirlik davridagi ijtimoiy - pedagogik qarovsizlik darajasining pasayishi mumkinligini, ayni vaqtda o‘zaro munosabatda ota-onada avtoritar, gipersotsializatsiya uslubiga xos yondashuv ustunlik qilishi muvaffaqiyatli korreksiya ishiga jiddiy to‘sqinlik qilishini tasdiqlovchi dalillarni keltirgan.

I.N. Raxmanina tomonidan ota-ona bilan munosabat o‘smir ijtimoiy- psixologik moslashuvchanligida qanday aks etishi tekshirilgan. Uning tadqiqotidan ma‘lum bo‘lishicha, bir tomondan, umuman oiladagi shaxslararo munosabatlar, ikkinchi tomondan, ota-onaning farzandlarga nisbatan tanlanma munosabati o‘smirlar ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda ota-ona bilan bo‘lgan munosabat xususiyatlari tug‘ilish ketma-ketligidan ko‘ra o‘smir farzand ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini ko‘proq belgilab berishi isbotlandi. Demak, umuman olganda bugungi kunga kelib, fanda ota-ona va farzand munosabatlarining xususiyatlari bola psixik rivojlanishida, shu jumladan, o‘smirlik davridagi rivojlanishida qanday aks etishini ko‘rsatuvchi katta hajmdagi ilmiy ma‘lumot to‘plangan.

Yuqorida qisqacha tavsifi keltirilgan bu kabi ilmiy ishlarning tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, ota-ona va farzand o‘rtasidagi salbiy munosabatning bola taraqqiyotidagi og‘ir oqibatlariga katta e‘tibor qaratilgan ko‘pchilik tadqiqotlarda ushbu salbiy munosabatning o‘zi ayni vaqtda nimaning oqibatida yuzaga kelgani haqidagi masala

e'tibordan chetda qolib kelmoqda, ikkinchidan, “ota-ona va farzand” munosabatlari tizimi sohasidagi buzilishlarning sabablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarda esa determinanta omillar avvalo, ota-ona va bola shaxsiga xos xususiyatlar qatoridan qidirilib, kognitiv soha bunday sabablar manbai sifatida tadqiqotchilar diqqat markazidan chetdadir. Qolaversa, o'smirlik davri psixologiyasi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlarda alohida ota yoki onaning bola bilan munosabati xususiyatlari emas, balki umumiy tarzda ota-onaning munosabati tadqiqot predmetiga aylantiriladi.

Ushbu yo'nalishdagi nisbatan oz sonli tadqiqotlarda bevosita onaning o'smir farzand bilan munosabati muammolari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda, asosan, ona munosabatining ota munosabatidan farqi, ushbu munosabatlarga xos xususiyatlarning bola psixik rivojlanishidagi ahamiyati, maxsus yordamga muhtoj o'smirlarning ona bilan munosabatlari muammolari, farzandini turmush o'rtog'isiz tarbiyalayotgan onalarning o'smir farzand bilan munosabatiga xos xususiyatlar tadqiq etilgan.

N.A.Yefremovaning aniqlashicha, ayollarning o'zini ona sifatida va shaxs sifatida baholashida ahamiyatli tafovutlar qayd etilsa, erkaklarda bu ikki yo'nalishdagi baho sust darajada differensiallashadi. Tadqiqotda ayollar onalik roli ularga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida ahamiyatliroq soha ekanini erkaklarning otalik roliga munosabatidan ko'ra yuqoriroq darajada qayd etadilar. Qolaversa I.A.Yefremova tomonidan oliy ma'lumotli va bunday ma'lumotga ega bo'lmagan onalarning “ideal ota-ona” haqidagi tasavvurlari o'zaro farqlanishi aniqlangan. Ma'lum bo'lishicha, oliy ma'lumotli onalarning “ideal ota-ona” haqidagi tasavvurlarida bolaga o'zaro munosabat subyekt sifatida yondashish ko'proq xos bo'lishi ifodalansa, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan onalar mukammal ota-onani kuchli nazorat o'rnata olishi, ya'ni bolani tarbiyaviy ta'sir obyekti sifatida ko'rishi bilan farqlaydilar. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchilar tomonidan onaning ma'lumot darajasi va bolaning emotsional muammolari, tengdoshlar bilan munosabat xususiyatlari o'rtasida aloqadorlik aniqlangan. Qolaversa, bir qator tadqiqotlar ota-onasidan qo'pol va tartibsiz munosabat ko'rgan bolalar kelgusida o'zini emotsional boshqarishda muammolarga ega, jahl, dushmanlik,

depressiya, bezovtalikka moyilligi yuqori, aksincha, kelajakda ularning o'ziga ishonchi past bo'lishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

A.A.Voronova turmush qurmagan onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabati va bunda ayollarning o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyoji darajasining ahamiyatini tadqiq etadi. Ma'lum bo'lishicha, bu toifa onalarning turmush qurgan ayollarga nisbatan farzandga munosabatida infantillashtiruvchi harakatlar (doim uning oldida bo'lishga, uni turli ko'ngilsizliklardan chegaralashga intilishi), bola qobiliyatlarini yuqori baholash, uning tashabbuskorligi va mustaqilligini rag'batlantirishga moyillik ko'proq kuzatiladi. Biroq tadqiqot natijalari ushbu toifa ayollar guruhining o'zida ham ma'lum tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda: yolg'iz onaning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish ehtiyoji qanchalik yuqori bo'lsa, uning bolani infantillashtirishga intilish darajasi shunchalik past bo'lar ekan. Boshqacha aytganda, turmush qurmagan onalar guruhida farzandga nisbatan infantillashtiruvchi munosabat ustuvor bo'lsa ham, o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyoji yuqori onalarda bunday munosabat sustroq ifodalanadi. Tadqiqotchining fikricha, bir toifa ayollarning farzandga munosabatdagi bunday farqli holatning sababi shundaki, o'z imkoniyatlari va salohiyatini namoyon etish ehtiyoji yuqori onalar bu xususiyati sust onalarga qaraganda farzandni shartli qabul qilishga moyil bo'ladilar. Farzandga munosabatda uni shartsiz qabul qilish esa ko'proq o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyoji yuqori bo'lmagan ayollarga xosdir.

Oilaviy munosabatlar muammolari doirasida ota-ona gender tasavvurlarining farzand o'zo'ziga beradigan bahosiga, oiladagi mikro- muhit xususiyatlarining o'smirlarda jins bilan bog'liq rollar haqidagi tasavvurlar rivojlanishiga ta'siri, oilaviy vazifalar haqidagi tasavvurlarning kasbiy faoliyat va undagi yutuqlar to'g'risidagi tasavvurlar bilan aloqasi o'rganilgan. Yolg'iz onalar tarbiyalayotgan qizlarning qarama-qarshi jins vakillari haqidagi tasavvurlari, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalar o'smir farzandlarining o'zi haqidagi tasavvurlarini o'rganish nuqtai nazaridan munosabat subyektlarining tasavvurlari mazmuni tadqiq qilingan.

A.A.Petrova o'z tadqiqotlarida onaning bola individual-psixologik xususiyatlari haqidagi tasavvurlari qanchalik adekvat bo'lsa, ularning o'zaro munosabati emotsional

ijobiy, bolaning qabul qilinish darajasi yuqori bo'lishini isbotladi. Aniqlanishicha, bolaning individualpsixologik xususiyatlari haqida noadekvat tasavvurga ega onalar orasida bola obrazini buzuvchi idrok etishning eng keng tarqalgan varianti uning ideallashtirilishidir. Ona-bola munosabatlari psixologiyasini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari orasida ushbu hodisani bevosita tasavvurlar bilan bog'lab tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Onalarga xos bo'lgan tasavvurlar muammosi bevosita bola bilan munosabatlar nuqtai nazaridan asosan, turli narsa-hodisalar haqida ikkala tomonning tasavvurlari naqadar bir biriga mosligi, bunda qanday omillar rol o'ynashi ko'rib chiqiladi. Masalan, van Doorn, Marleen M. E. M.; Bodden, Denise; Jansen, Mélou; Rapee, Ronald M.; Granic, Isabela xavotirli vaziyatlar haqida ona va bolaning tasavvurlari bir biriga qanchalik o'xshashligini tekshirishgan [9]. Albatta, bu kabi tadqiqotlar ona va bola o'rtasidagi munosabatlar ularning turli masalalarda o'xshash va yaqin tasavvurga egaligiga qanchalik bog'liqligini tushunishda yordam beradi. Ammo o'sha tasavvurlarning o'xshash yoki o'xshamas ekanligi, ya'ni tasavvurlardagi differentsiatsiyaning sabablari ko'p hollarda noaniq qolayapti. Qolaversa, nima haqida tasavvurlardagi o'xshashlik munosabatlarga, ayniqsa, kuchli ta'sir qilishi, qanday masalalardagi tasavvurlar umumiyligi nisbatan kuchsiz ta'sir qilishi aniqlashtirilmayapti.

Bu yo'nalishda ota-onalar va bola munosabatlarida kattalarning tasavvurlari o'zini qanday namoyon etishi ham alohida o'rganilgan. Xususan, hamkorlik strategiyasi asosida bola bilan munosabat qurishga intiluvchi ota-onalarning real va ideal farzand haqidagi tasavvurlarida uyg'unlik mavjudligi qayd etilgan. Aksincha, bola bilan munosabat uchun nazorat uslubini tanlangan ota-onalar bolaning obrazida ko'proq "ko'ngilchan", "bo'shang", "diqqate'tiborsiz", aqlli va maqsadga intiluvchan bolani ko'radilar. Mazkur tadqiqotda biz o'rganayotgan muammoga ma'lum ma'noda yaqinlik mavjud, ya'ni bu yerda ham ota-onalar va farzand munosabatlarida kattalarning tasavvurlari muhim omil sifatida o'rganilgan. Ammo bu yerda ota-onaning bola haqidagi tasavvurlari o'rganilib, ularning o'zi haqidagi tasavvurlari farzand bilan munosabatga qanday ta'sir ko'rsatishi diqqatdan chetda qolgan.

Umumiy ravishda, “ona-bola” tizimidagi munosabatlar, shu jumladan, onaning o‘smir farzand bilan munosabatlari xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazilganini e‘tirof etish o‘rinlidir. Ushbu tadqiqotlar mazmuni va natijalari bilan tanishish, ularni nazariy- tanqidiy tahlil etish quyidagi xulosalarni chiqarish uchun asos bo‘lishi mumkin, deb hisoblaymiz: Bevosita onaning bola bilan munosabatlari muammolarini o‘rganishga qaratilgan xorijiy izlanuvchilar tadqiqotlarida ko‘proq nosoz, ayanchli hayotiy vaziyatlarda ona-farzand o‘zaro ta’sirlashuvi xususiyatlari, onaning bunday sharoitda bolaga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi qanday individual va ijtimoiy psixologik omillarga bog‘liqligi hamda eng muhimi, shunday yondashuvning bola taraqqiyoti uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi tekshirilgan. Ona-bola munosabatlari umuman, oilaviy munosabatlar muammolari doirasida individual va ijtimoiy tasavvurlar, ularning turlicha oilaviy muhit sharoitida, har xil toifa onalar va bolalarda vujudga kelishi hamda ifodalanishi xorijiy tadqiqotchilar tadqiqotlarida predmet sifatida ko‘rilgan bo‘lsa ham, bunday tasavvurlarning o‘zaro munosabat jarayonida tutgan o‘rni maxsus o‘rganilmagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar va farzand munosabatlarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish bolaning barkamol shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Oila ichidagi mehr, ishonch va ochiq muloqot bolada ijobiy psixologik rivojlanishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. –B.138.
2. Воронова А.А. Особенности родительского отношения незамужних матерей к своим детям: Автореф дис..к.психол.н. – М: МГУ, 2008. – 25 с.
3. Ефремова Н.А. Психологическое содержание Я-концепция родителя: Автореф дис..к.психол.н. – Омск: ОГУ, 2004. – 23 с.

4. Петрова А.А. Материнские представления об индивидуально-психологических особенностях ребенка как фактор детско - родительского эмоционального взаимодействия: Автореф. дис... к. психол. н. – М.: МГПУ, 2001. – 24 с.
5. Abdullaeva D.U. Social factors affecting child education psychological factors. // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Texas, USA. December 2022. P.154-156.